

AYOL LIDERLIGI VA IJTIMOY ADOLAT MUMMOSI

Andijon davlat pedagogika institute

Pedagogika fakulteti Boshlangich

Ta'lim yo'nalishi 1 kurs talabasi

Mamatqulova Dilnoza Oybek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston jamiyatida ayol rahbarlarning shakllanishi, ularning boshqaruvidagi roli hamda zamonaviy davrda ayollar liderligining o'ziga xos jihatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy –siyosiy faollik, ayollar huquqi, liderlik.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan insonlarning teng huquqliligi va imkoniyatlariga bog'liq. Ayniqsa, ayollarning jamiyatdagi o'rni va ularning liderlik salohiya rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayol liderligi va ijtimoiy adolat tushunchalari bir biri bilan chambarchas bog'liq, ular jamiyatda barqaror rivojlanish, adolat farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Dunyo rivojining hozirgi davrida inson taraqqiyoti uning huquq va erkinliklari ijtimoiy adolat va inson xavfsizligini ta'minlash borasidagi olib borilayotgan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalda ta'minlash masalalari ustuvor vazifalarining biriga aylanmoqda. Fuqarolik jamiyatini etishda fuqarolarning ijtimoiy siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishlari eng muhim omillardan biridir. Bu borada butun dunyo bo'ylab ayollarning huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Zero gender farqlarni bartaraf etish nafaqat ayollar va qizlarga, balki butun mamlakat larga foyda keltiradi.

Ayol liderligi- bu ayollarning turli sohalarida rahbarlik qilish, qaror qabul qilish va boshqaruv jarayonlarida faol ishtirok etishdir. Tarixan qaraganda, ko'plab jamiyatlarda liderlik asosan erkaklar bilan bog'langan. Biroq zamonaviy davrda ayollarning imkoniyatlari kengayib, ular siyosat, iqtisodiyot ta'lim, fan kabi sohalarida o'z o'rnini topa boshladi. Ayol liderlar odatda quydagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: muammolarga mehr va e'tibor bilan qarash, jamoa bilan ishlash ko'nikmasi, sabr-toqat va mas'uliyatlilik, innovatsion fikrlash. Bugungi kunda ayollar nafaqat oilada balki jamiyatda muhim qarorlar qabul qiluvchi, shaxs sifatida shakllanmoqda. Ijtimoiy adolat –bu jamiyatdagi barcha insonlarning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini anglatadi. Bu tushuncha jins, millat, din yoki

ijtimoiy kelib chiqishidan qati’I nazar , har bir inson uchun teng sharoit yaratishini talab qiladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak tarixiy yo’lning boshida ona hukmdor bo’lib, bunda ona oila boshlig’I bo’lgan. Urug’ kengashida u birlamchi ovoz huquqiga ega bo’lgan .Qirolicha va hukmdor ayollar ,masalan ,Misrdagi singari matriarxatda ayollarcha xarakter ustun bo’lgan asarlar paydo bo’lgan .Chunonchi Astrata ,Demestra ,Serera, Patona , To’maris va hokazonomlar shu tariqa paydo bo’lgan.Ayol daxlsiz hisoblangan. Modarkushlik eng og’ir jinoyat bo’lib, uning uchun barcha erkaklar o’ch olishlari talab qilingan. Ayollarni himoyalash erkaklarni mardlikka davat etgan.Qadimgi xalqlar :bobilliklar ,assiriyaliklar , misrliklar, yunonlarda eramizdan oldingi davrlarda ,italiyaliklarda esa Rimga asos solguncha shunday bo’lgan .Gerodotning hikoya qilishicha , onalik huquqi hukmron bo’lgan davrda tinchlik hukm surgan ,qabilalar bir birini o’zaro hurmat qilgan. Ayol, agar zarur deb hisoblasa urushni to’xtatish to’g’risida buyruq berish qudratiga ega bo’lgan Skiflarda esa zarur bo’lib qolgan hollarda ayollarda jangda qatnashganlar.

Ayol liderligi va ijtimoiy adolat –zamonaviy jamiyatning muhim yo’nalishlaridan biridir. Ayollarga teng imkoniyatlar yaratish nafaqat ularning shaxsiy rivoji ,balki butun jamiyat tarraqiyoti uchun zarurdir. Ijtimoiy adolatni ta’minlash orqali ayollar o’z salohiyatni to’liq namoyom etish mumkin. Shunday ekan har bir jamiyat ayollarning liderlik sayohati qo’llab –quvvatlashi va ularning huquqlarini himoya qilishi zarur. Faqat shundagina adolatli va rivojlangan jamiyatni barpo etish .Ayollar masalasining jamiyat tomonidan idrok etilishi XVIII asrda samarali amalga oshirildi.1787-yilda ma’rifatparvar faylasuf J.A.Kondresi “Ayollarni fuqarolik huquqlariga jalb etish “ nomli maqolasini e’lon qildi. Maqolada quydagicha savolni o’rtaga qo’yadi: “Qaysi qonunga ko’ra, ayollarni ijtimoiy hayotdan chetlatadilar? Axir, ular millatni bir qismi emasmi?” Oradan ikki yil o’tgach , Olimpia de Guj Konventga “Ayollar va fuqaro ayollar deklaratsiyasi “ni taqdim etadi.Didrolar ayol kishida erkak bilan bilan teng matonatni ko’radilar.XVI asr oxirlarida fransuz ma’rifatparvarligi ta’sirida ayollarning ijtimoiy maqomi ko’tarildi,ularga o’qish imkoniyati berildi.Imperator Yekatiarena hukmronligi zamonida jahonda birinchi bo’lib Knyaz Doshkova xonim Fanlar akademiyasining prezidenti bo’ldi.Sho’rolar zamonida Sharq ayollarining ozod qilinishi ijobiy va salbiy oqibatlarini keltirib chiqardi.Nikoh va oila haqidagi sho’ro qonunlari ko’p xotinlikni qalin to’lashni bekor qildi. Erkak va ayol tenglingi e’lon qilindi. Ammo hududda o’tkazilgan o’zgarishlar zo’ravonli bilan amalga oshirilganligi uchun reaksion kayfiyatidagi din vakillari aholining yangi tartiblarga nisbatan jiddiy qarshiligini keltirib chiqardi. Shaxsiy hayotga qo’pol aralashuv, yangicha ma’daniy va mafkurani zo’rlab singdirish salbiy va kutilmagan oqibatlarga

olib keldi. Masalan, “Xujum” siyosiy kompaniyasining faoliyati tufayli ko’p sonli qurbonlar evaziga ayollar ozod etildi.

Xotin qizlar huquqi –inson huquqi demakdir. Bu haqiqat uzoq yillar mobaynida tan olinmay keldi. Aslida, xotin qizlar huquqi inson huquqi sifatida maydonga chiqqaniga ko’p bo’lgani yo’q. Garchi 1979-yilda qabul qilingan xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etishga bag’ishlangan Xalqaro Konvensiya xotin-qizlarni huquqi himoya qilishga eng mukkamal xalqaro hujjat sanalsada, hatto shu hujjatda ham ayollarga qarshi zo’ravonlik haqida lom mim deyilmagan. Jahon jamoatchiligi xotin-qizlarga qarshi jinoyat haqida ilk marta 1980-yillarda so’z ochdi. Faqat 1985 yildagina xotin-qizlarga qarshi jinoyatlar masalasi BMTning kun tartibiga qo’yildi. Shundan so’ng bu masala eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Hozrigi vaqtga kelib, butun dunyo bo’ylab ayollar huquqlari kengaymoqda, jamyatning keng jabharida ayollarning faoligini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishlari uchun ularga yetarlicha shart-sharoit yaratib berish borasida qator islohotlar, sa’y harakatlar qilinmoqda. Xususan, O’zbekiston Mustaqillikka erishgandan so’ng xotin-qizlar muammosi mamlakatimizda amalga oshirayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning alohida e’tiborga molik tomoniga aylandi.

Xulosa o’rnida shuni aytsih mumkinki, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish jamiyat tarroqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu istiqbollar xilma-xilligiga, boshqaruvni takommilashtirishga, gender tengligiga, iqtisodiy o’sishga, inson huquqlari, tinchlik va xavfsizlik olib keladi. Shu bois jamiyatning barcha qatlamlarida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va qo’llab –quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Ayollarning jamiyat hayotida to’liq va teng huquqli ishtirokchi kuchli, jonli demokratiyani barpo etish va uni qo’labb –quvvatlash uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. KARIMOV I. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. Toshkent Ma’naviyat ,2008
2. Agzamova G.A. Rahbar ayol immijining o’ziga xos xususiyatlari-. Magistirlik dissertatsiyasi, T. Akademiya ,2004
3. Asqarov A. Boburiylar tarixi va ayol siymolari Toshkent : Fan 2018
4. Ayol va huquqiy ma’daniyat, To’plam –T: Adolat .1999.